



MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



A.AVLONIY NOMIDAGI
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI



JIZZAX VILOYATI
PEDAGOGIKA MARKAZI

**“INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA FAN, TA'LIM VA ISHLAB
CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYASI
(2024-YIL, 15-IYUN)**

MATERIALLARI

**“ENSURING THE INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND
PRODUCTION BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES:
PROBLEMS AND SOLUTIONS”**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
ONLINE CONFERENCE
(JUNE 15, 2024 Y)**

MATERIALS



5. Musurmanova O. Oila ma'naviyati milliy g'urur: o'quv qo'llanma.-T: O'qituvchi 1999 yil.

6. Musurmonova A. Pedagogicheskiye osnovy formirovaniya duchovnoy kultury starsheklassnikov: Avtooref.diss...dok.p.nauk.-T.:1993.

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MALAKA OSHIRISH DAVR TALABI

M. Abdullayeva

*Andijon viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi direktori, p.f.n., professor.
Tarbiyalashda eng asosiysi, tarbiyachining kimligidir.*

(D. Pisarev)

Annotatsiya: Mazkur maqolada muallif aynan kattalarni o'qitisha noan'anaviy texnologiyalardan foydalanish sifatli ta'lim berishning asosi bo'lib xizmat qilishligini ko'rsatishga harakat qilgan. Ta'lim-tarbiya jarayonda mavjud muammolarni hal etishda kadrlarni o'qitish va malakasini oshirish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Bu esa malaka oshirish tizimiga mutloq yangi yondashuvni talab etmoqda.

Kalit so'zlar. Pedagog, Andragog, kuchli, kuchsiz, kasbiy ahamiyati, ixtisoslik, istiqbol, kasbiy burch, izzat-nafs, haqqoniylik, vijdon.

Аннотация: В данной статье автор попытался показать, что использование нетрадиционных технологий обучения взрослых является основой качественного образования. В целях решения существующих проблем в образовательном процессе одним из актуальных вопросов становится подготовка и повышение квалификации кадров. Это требует совершенно нового подхода к системе обучения.

Ключевые слова. Педагог, андрагог, сильный, слабый, профессиональная значимость, специальность, перспектива, профессиональный долг, честь, честность, совесть.

Abstract: In this article, the author tried to show that the use of non-traditional technologies for teaching adults is the basis of quality education. In order to solve the existing problems in the educational process, training and improving the skills of personnel is becoming one of the urgent issues. This requires a completely new approach to the training system.

Keywords. Pedagogue, andragogue, strong, weak, professional importance, specialty, perspective, professional duty, honor, honesty, conscience.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha sohalarida, shu jumladan ta'limi tizimida ham muhim ahamiyatga molik islohatlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda Davlat dasturlari natijasida ta'lim muassasalarining moddiy - texnika bazasi mutahkamlandi, maktablar qaytadan qurildi va kapital ta'mirdan chiqarildi. Zamonaviy kompyuter texnikalari va o'quv - laboratoriya anjomlari bilan ta'minlandi. Ushbu o'zgarishlar natijasida ta'lim sifatini oshirishning o'ziga xos moddiy asosini yaratdi. Endigi vazifa - kutilayotgan mazkur sifatni ta'minlash uchun mas'ul shaxs - pedagogning kasbiy tayyorgarlik saviyasini oshirish va salohiyatni doimiy ravishda zamon talablari darajasida bo'lishini ta'minlab turishdir.

Ma'lumki, hozirda Respublikamizda 500 mingdan ziyod pedagoglar, ta'lim muassasalarining raxbarlari, uslubchi kadrlar faoliyat olib bormoqdalar va ularning kasb mahoratlarini davr talablari darajasida bo'lishini ta'minlash Respublika raxbar xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markaziy instituti va 14 ta hududiy markazlar zimmasiga yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 17 yanvardagi 25-sonli Xalq ta'lim xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi tug'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi Qarori bilan bugungi kunda barcha pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlarining faoliyati tubdan qayta ko'rib chiqilmoqda va mavjud muammolarni bartaraf etish choralari ko'rilmoqda.

Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi muammolardan biri

- ta'lim jarayoniga ta'lim sifatining davlat talablari darajasida ta'minlanishiga xizmat qiladigan texnologiyalarni joriy etish;

- rivojlangan mamlakatlarda kattalarni o'qitishda shu qatori pedagoglarga qo'shicha ta'lim berishda andragogikaning yutuqlaridan keng foydalanish muammolaridir;

Uzoq yillar davomida kattalar va bolalar bir xil metodlar bilan o'qitilgan. Vaqt o'tishi bilan kattalarni o'qitishda bolalarni o'qitishda foydalanilgan metodlar va usullar bilan o'qitish samara bermasligi ma'lum bo'ldi. Ikkinchi ming yillikning oxirida kattalar ta'limi butun insoniyat rivojlanishining mezoniga aylandi. Jamiyat hayotiga jalb qilingan har bir insonni eng birinchi muammosi uning kompetentlik darajasini jamiyat rivojlanishining sur'atlaridan orqada qolishi bo'lib qoldi. Bugungi kunga kelib, katta yoshdagi insonlarni o'qitish jarayonini tashkil qilishda yangi yondashuvlarga zarurat va kattalar ta'limi ahamiyatining o'sib borishi sezilmoqda.

YUNESKO tashkilotinig materiallari bo'yicha, kattalar ta'limining ustuvor vazifasi – insonni zamonaviy tezkor rivojlanayotgan jamiyatda ijodiy faoliyat va quvonchli hayot uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar yig'indisi bilan ta'minlashdir.

XX asrning o'rtalariga kelib, kattalar ta'limi to'g'risida mahsus fanni yaratishga bo'lgan ehtiyoj sezila boshladi va dunyoning turli mamlakatlarida ushbu sohada katta amaliy tajriba to'plandi. Shu tariqa yangi ilmiy fan – andragogika shakllandi.

“Andragogika” tushunchasi nemis pedagogika tarixshunosi A.Kapp tomonidan ilmiy rusumga kiritilgan bo'lib, so'zma - so'z tarjimasida – “katta odamni boshqarish, yetaklash” degan ma'nolarni bildiradi. Andragogikani shakllanishi bevosita amerikalik olimlar M.Sh.Noulz, R.M.Smit, angliyalik P.Djarvis va Nottingem universitetining bir guruh olimlari nomi bilan bog'liq. 1970 yili M.Sh.Noulz andragogika bo'yicha “Kattalar ta'limining zamonaviy amaliyoti. Andragogika pedagogikaga qarshi” nomli fundamental asarini yaratdi. Mashhur rus psixologi B.G.Ananyev andragogikani “insonshunoslik” deb atagan.

Pedagogika markazlarida ta'lim jarayoniga ta'lim sifatini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, kattalar ta'limini tashkil etishda katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning alohida xususiyatlari, kasbiy tayyorgarligi darajasi va amaliy tajribalarni inobatga olish umumiy o'rta ta'lim sifatini yuqori natijalarga

erishish imkoniyatini beradi. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda ushbu tizimda faoliyat ko'rsatayotgan kadrlarning ilmiy salohiyatlarini yanada oshirish va mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

Andragog mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojlar sezilarli darajada ortib borayotganligiga qaramasdan haligacha O'zbekistondagi birorta oliy ta'lim tizimida ushbu ixtisosliklar davlat tasniflagichiga kiritilmagan. Asosiy funksiyasi kattalarni o'qitishdan iborat bo'lgan mutaxassis-andragoglarni tayyorlashda ushbu kasbning o'ziga xos bo'lgan qator xususiyatlarini hisobga olish zarur. Shuning uchun avvalo andragog mutaxassislarning bajarishi lozim bo'lgan vazifalarni aniqlab olish kerak. Andragog quyidagilarni bajarishi kerak:

- O'zining imkoniyatlari, kuchli va kuchsiz tomonlarini ob'yektiv baholashi;
- Katta yoshdagi ta'lim oluvchining kasbiy ahamiyatli sifatlarini anglashi;
- Olingan inson to'g'risidagi bilimlarini o'zining keyingi kasbiy faoliyati uchun ahamiyatini tushunishi;
- O'zi tomonidan tanlangan ixtisoslikning keyingi rivojlanishi uchun ochib beradigan istiqbolini ko'ra bilishi.

Kattalar ta'limi bilan shug'ullanuvchi andragogning pedagogdan farqli jihati shundaki, agar o'quvchi shakllanish jarayonida bo'lgan bola bo'lsa, pedagogik markazlariga kelgan tinglovchilar shaxs sifatida shakllangan, bazaviy ma'lumotga ega, ijtimoiy va ishlab chiqarish tajribasiga ega bo'lgan katta yoshdagi kishilardir. Ular o'qishga o'z ixtiyorlari bilan keladilar, o'zini mustaqil shaxs sifatida tushunadi, olingan bilim, ko'nikma va malakalarni tezroq amalga oshirishga intiladilar. Pedagogik faoliyatda asosiy maqsad ta'lim oluvchilarni rivojlantirish, tarbiyalash, kelajak hayot faoliyatiga tayyorlash bo'lsa, andragogik faoliyatda asosiy maqsad shaxsning rivojlanishi va takomillashtirilishiga, tarbiyalash (qayta tarbiyalash)ga, o'qitish (qayta o'qitish)ga, moslashishga, mustaqil ta'lim olishiga va o'z-o'zini rivojlantirishiga ko'mak berishga qaratiladi. Shu sababli ularni o'qitishni tashkil qilishda shaxsiy, fiziologik, psixologik, ijtimoiy va kasbiy xususiyatlarni inobatga olish zarur. Sosiologlarning qayd etishicha, oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining muvaffaqiyatli amaliy faoliyatining 15-20 % olingan kasbiy bilimlarga bog'liq bo'lib, qolganlari esa odamlar bilan ishlash ko'nikmasi bilan aniqlanadi.

Andragog o'z amaliyotida ta'lim oluvchilarning fiziologik va psixologik xususiyatlarini o'rganar ekan, avvalo ularning temperament turi va xarakterining individual xususiyatlarini ochib berishi lozim. Yosh ulg'ayishi bilan inson organizmidagi ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ba'zi fiziologik funksiyalar birmuncha zaiflashadi. Ko'rish, eshitish pasayadi, xotira, ongning tezligi va egiluvchanligi yomonlashadi, reaksiyaning tezligi sekinlashadi.

Garchi andragog atamasi "inson-inson" turiga kiruvchi kasblar (jurnalist, tibbiyot xodimi, aktyor, kutubxonachi, siyosatchi, ijtimoiy psixolog...)ning barchasiga tegishli bo'lsada, an'anaga ko'ra asosan kattalar ta'limi bilan shug'ullanuvchi – kattalar maktabi, oliy ta'lim muassasalari, malaka oshirish institutlarida ishlovchi o'qituvchilarga nisbatan qo'llaniladi.

Andragogning dunyoqarashi quyidagicha shakllanadi:

- O'zining ma'lum bir fazilatlarini (kuchli tomoni, ochilmagan resurslarini

- O‘zining asosida faol (jismoniy, psixik yoki ijtimoiy-ijobiy)
- O‘zi uchun javob berishni hohlaydi (andragog ta‘lim mazmuniga javob beradi, ta‘lim oluvchi esa tirishqoqlikka va o‘quv jarayonining boshqa ishtirokchilarini hurmat qilishga);
- Rivojlanishi mumkin (umidsiz ta‘lim oluvchi yo‘q, ularni rag‘batlantirmaydigan va motivlashtirmaydigan andragoglar bor).

Shuningdek, andragog faol eshitish, ko‘rish kontakti kabi muloqat texnikasiga ega bo‘lishi, ta‘lim oluvchilarni qo‘llab-quvvatlashni bilishi, ularni tushunishi va rag‘batlantirib borishi lozim.

Andragogning kasb etikasi quyidagilardan iborat:

- kasbiy burch;
- kasbiy izzat-nafs;
- kasbiy xaqqoniylik;
- kasbiy vijdon;

Kattalar ta‘limi bilan shug‘ullanuvchi-andragog o‘zining faoliyatini to‘laqonli amalga oshirishi uchun undan avvalo empatiya va simpatiya, insonparvarlik va muloqatchanlik, kompetentlik, tegishli kasbiy bilimlar, malakalar, kattalar bilan ishlash ko‘nikmasi, obro‘lilik, tashkilotchilik, artistlik, irodalilik, sabrlilik va notiqlik kabi xususiyatlarga ega bo‘lish talab qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha va maktab ta‘limi tizimida faoliyat olib borayotgan pedagog-tarbiyachilarning kelajak vorislari bo‘lgan o‘quvchilarga samarali ta‘lim-tarbiya berib borishlari uchun pedagoglarning o‘z ustida tinimsiz ishlashlari, o‘zlarining kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib, mavjud bilimlarini ta‘limdagi yangi va zamonaviy yangiliklar bilan to‘ldirib, eskirgan bilimlarini yangilab borishlarida pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlarining o‘rni va ahamiyati toboro muhim o‘rin tutmoqda. Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, bugungi kunda pedagogik markazlarida faoliyat olib boayotgan andragog-mutaxassislar oldida ham mas‘uliyat paydo bo‘lmoqdaki, zero pedagogik markaz mutaxassislari ham bu mas‘uliyani to‘la anglab yetgan holda o‘z ustida tinimiz izlanishlari, ilmiy-uslubiy, o‘quv-metodik va ma‘naviy jihatdan yetuk bo‘lishlari zarur.

Pedagogik markazlarda to‘g‘ri tashkil qilingan ta‘lim faoliyati ta‘lim oluvchilarning ertangi kunga ishonchini oshirishga, hayotiy voqealarni tushunishga imkon beradi, ularni umuminsoniy qadriyatlar asosida birlashtirishga ko‘maklashadi. Kasbiy va ijtimoiy harakatchanligini oshiradi, o‘zlari uchun hayotning mazmunini, jamiyatdagi o‘z o‘rinlarini insoniy va fuqarolik burchlarini aniqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023 yil.
2. Islom Karimov. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. Toshkent – 2008 yil
3. “Ta‘lim to‘g‘risida” gi qonun. Toshkent – 202023 sentyabr. 637 O‘Q.
4. R.Jo‘rayev, M.Yuldashev, N.Raxmanqulova va boshq. Pedagog kadrlar malakasini uzluksiz oshirish mexanizmini takomillashtirish. “Adabiyot uchqunlari”. Toshkent-2014 yil.